NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

UDK 378.091.33:37.013.42

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TARBIYAVIY FAOLIYATI JARAYONIDA TALABALAR KASBIY RIVOJLANISHINING AHAMIYATI

Sanayeva Surayyo Bobonazarovna
Navoiy davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari tarbiyaviy faoliyati jarayonida talabalarning kasbiy rivojlanishining nazariy-pedagogik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy faoliyatning talabalarning kasbiy shakllanishi, kasbiy kompetensiyalari va ijtimoiy faolligini rivojlantirishdagi o' rnini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda tizimli yondashuv, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil hamda ilmiy-pedagogik manbalarni o' rganish metodlaridan foydalanildi. Natijada tarbiyaviy faoliyat talabalarda kasbiy motivatsiya, kasbiy identifikatsiya, umumkasbiy kompetensiyalar, mustaqil ta'lim olish ko' nikmalari va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning muhim pedagogik omili ekanligi asoslandi. Shuningdek, pedagog va talaba hamkorligi, mentorlik, mustaqil ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatining kasbiy rivojlanishga ta'siri yoritildi. Xulosa sifatida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya jarayonining integratsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyat talabalarning kasbiy kamoloti va zamonaviy mehnat bozori talablariga mos mutaxassis sifatida shakllanishini ta'minlashi asoslab berildi.*

Kalit so' zlar: *oliy ta'lim muassasasi, tarbiyaviy faoliyat, kasbiy rivojlanish, kasbiy shakllanish, kasbiy kompetensiya, umumkasbiy kompetensiyalar, kasbiy identifikatsiya, kasbiy motivatsiya, pedagog-talaba hamkorligi, mentorlik, kompetensiyaviy yondashuv, ta'limiy muhit.*

ЗНАЧЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация: *В данной статье проанализированы теоретико-педагогические основы профессионального развития студентов в процессе воспитательной деятельности высших образовательных учреждений. Цель исследования заключается в определении роли воспитательной деятельности в профессиональном становлении студентов, развитии их профессиональных компетенций и социальной активности в условиях высшего образования. В исследовании использованы методы системного подхода, анализа и синтеза, сравнительного анализа, а также изучения научно-педагогической литературы. В результате обосновано, что воспитательная деятельность является важным педагогическим фактором формирования профессиональной мотивации, профессиональной идентичности, общепрофессиональных компетенций, навыков самостоятельного обучения и активной гражданской позиции студентов. Кроме того, раскрыто влияние сотрудничества преподавателя и студента, наставничества, самостоятельного обучения и научно-исследовательской деятельности на профессиональное развитие студентов. Сделан вывод о том, что интеграция обучения и воспитания, а также организация воспитательной деятельности на основе компетентностного подхода обеспечивают профессиональное становление студентов и их подготовку как конкурентоспособных специалистов, отвечающих требованиям современного рынка труда.*

Ключевые слова: *высшее образовательное учреждение, воспитательная деятельность, профессиональное развитие, профессиональное становление, профессиональная компетенция, общепрофессиональные компетенции, профессиональная идентичность, профессиональная мотивация, сотрудничество преподавателя и студента, наставничество, компетентностный подход, образовательная среда.*

THE IMPORTANCE OF STUDENTS' PROFESSIONAL DEVELOPMENT IN THE PROCESS OF EDUCATIONAL ACTIVITIES AT HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract: *This article analyzes the theoretical and pedagogical foundations of students' professional development in the process of educational activities at higher education institutions. The purpose of the study is to determine the role of educational activities in students' professional formation, the development of their professional competencies, and their social activity within higher education. The research employs a systematic approach, analysis and synthesis, comparative analysis, and the study of scientific and pedagogical literature. The findings demonstrate that educational activities serve as an important pedagogical factor in developing students'*

professional motivation, professional identity, general professional competencies, independent learning skills, and active civic engagement. Furthermore, the study highlights the influence of teacher–student cooperation, mentoring, independent learning, and research activities on students' professional development. It is concluded that the integration of teaching and educational processes, together with the organization of educational activities based on the competency-based approach, ensures students' professional growth and prepares them as competitive specialists who meet the demands of the modern labor market.

Keywords: *higher education institution, educational activities, professional development, professional formation, professional competence, general professional competencies, professional identity, professional motivation, teacher–student cooperation, mentoring, competency-based approach, educational environment.*

O‘ zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘ nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilib, mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘ sha oladigan, yangi tashabbus va innovatsion g‘ oyalarni ilgari surish hamda ularni amaliyotga samarali tatbiq etishga qodir, yuksak intellektual salohiyat va ma’naviy fazilatlarga ega yangi avlod kadrlarini tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining zamonaviy mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishini ta’minlash maqsadida ularda zarur bilim, ko‘ nikma va kompetensiyalarni rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida belgilanmoqda[2].

Mamlakatimizda barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlarni yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning intellektual salohiyati va jismoniy barkamolligini ta’minlash hamda jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘ nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda so‘ nggi yillarda talaba-yoshlarda zamonaviy bilim, ko‘ nikma va kompetensiyalarni rivojlantirish, ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘ lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Ayni paytda milliy ta’lim-tarbiya tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar va ilg‘ or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, yoshlarni bilimli, tashabbuskor, ma’naviy yetuk hamda jismonan sog‘ lom shaxslar sifatida tarbiyalash, shuningdek, ta’lim muassasalari rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy salohiyati hamda ijtimoiy nufuzini yuksaltirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish dolzarb vazifalardan biri bo‘ lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalari nafaqat yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlaydigan ta’lim maskani, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy va ma’naviy taraqqiyotini ta’minlovchi strategik institut sifatida faoliyat yuritishi zarur. Binobarin, oliy ta’lim tizimida tashkil etilayotgan o‘ quv-tarbiya jarayonining mazmuni, sifati va samaradorligi inson kapitalini rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish hamda davlatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish bilan bevosita uzviy bog‘ liqdir.

Oliy ta’lim muassasasi fan, iqtisodiyot, madaniyat va jamiyat hayotining turli sohalari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydigan ta’lim muassasasi hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalari faoliyati belgilangan tartibda litsenziyalanadi va davlat tomonidan tasdiqlangan ta’lim dasturlari asosida amalga oshiriladi. Mazkur ta’lim bosqichi shaxsning kasbiy shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘ rin tutadi[13].

Oliy ta’lim umumiy o‘ rta ta’limdan o‘ zining fundamental, ilmiy va kasbiy yo‘ naltirilganligi bilan ajralib turadi. Oliy ta’lim muassasalarida o‘ quv jarayoni chuqur nazariy bilimlarni o‘ zlashtirish, ilmiy asoslangan yondashuvlarni egallash, tanqidiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘ naltirilgan. Mazkur jarayon talabalarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqishini kuchaytirish va ularni zamonaviy mehnat bozori talablariga javob bera oladigan malakali mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, oliy ta’lim jarayonida talabalar nafaqat kasbiy bilim, ko‘ nikma va malakalarni egallaydi, balki o‘ zini bo‘ lajak mutaxassis sifatida anglash, kasbiy mas’uliyatni his etish, mustaqil qaror qabul qilish hamda uzluksiz kasbiy va shaxsiy rivojlanishga intilish kabi muhim sifatlarni ham shakllantiradi.

Tashkiliy-huquqiy jihatdan oliy ta’lim muassasalari universitet, institut va akademiya shakllarida faoliyat yuritadi. Ularning o‘ ziga xos xususiyatlari ta’lim yo‘ nalishlari va mutaxassisliklar qamrovi, ilmiy-tadqiqot faoliyatining ko‘ lami hamda kadrlar tayyorlash ixtisosligi bilan tavsiflanadi. Xususan, institutlar, asosan, muayyan soha bo‘ yicha ixtisoslashgan mutaxassislarni tayyorlashga yo‘ naltirilgan bo‘ lsa, universitetlar ko‘ p tarmoqli ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshiruvchi kompleks oliy ta’lim muassasalari hisoblanadi. Akademiyalar esa ma’lum bir yo‘ nalish doirasida chuqurlashtirilgan ta’lim va ilmiy faoliyatni tashkil etishga ixtisoslashadi. Biroq oliy ta’lim muassasasining tashkiliy maqomi bitiruvchining kasbiy tayyorgarligi darajasini belgilovchi asosiy omil hisoblanmaydi. Mutaxassis tayyorlash sifati, avvalo, ta’lim mazmuni, pedagogik jarayonning samaradorligi, professor-o‘ qituvchilarning salohiyati hamda ta’lim sifatini ta’minlovchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar bilan belgilanadi[13].

Oliy ta’lim muassasalari talabalarning kasbiy tayyorgarligini ta’minlash bilan birga, ularning shaxsiy, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishida ham muhim o‘ rin tutadi. O‘ quv-tarbiya jarayonida talabalarda kasbiy bilim va kompetensiyalar bilan bir qatorda kasbiy qadriyatlar, mas’uliyat, mustaqillik, tashabbuskorlik, intizom, muloqot madaniyati hamda ijtimoiy faollik kabi muhim shaxsiy sifatlar shakllantiriladi. Shu jihatdan talabalar jamoasi nafaqat yuqori malakali mutaxassislar zaxirasini yaratuvchi ijtimoiy qatlam, balki jamiyatning innovatsion rivojlanishi va ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlashda faol ishtirok etuvchi muhim ijtimoiy kuch sifatida namoyon bo‘ ladi.

Mazkur jarayonda oliy ta’lim muassasalarining tarbiyaviy faoliyati alohida pedagogik tizim sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyaviy faoliyat talabalarning ma’naviy-axloqiy, fuqarolik va kasbiy fazilatlarini shakllantirish, ijtimoiy mas’uliyati va faolligini rivojlantirish, umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarga sodiqligini mustahkamlashga yo‘ naltirilgan maqsadli, tizimli va uzluksiz pedagogik jarayon hisoblanadi. Aynan samarali tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyat talabaning kasbiy kompetensiyalarini shaxsiy fazilatlar bilan uyg‘ un rivojlantirish, uning ijtimoiy moslashuvi va kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorligini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi[10].

Tarbiyaviy faoliyatning asosiy vazifasi talabalarda kasbiy mas’uliyat, faol fuqarolik pozitsiyasi, jamoada samarali ishlash, kommunikativ madaniyat, ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik va axloqiy qadriyatlarga sodiqlik kabi umumkasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga puxta tayyorlashdan iborat[4]. Bu jarayonda auditoriya mashg‘ ulotlaridan tashqari tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, jamoat ishlari, volontyorlik faoliyati, mentorlik tizimi va talabalar o‘ zini o‘ zi boshqaruvi muhim didaktik vosita sifatida xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, tarbiyaviy faoliyat faqat axloqiy yo‘ naltirish emas, balki shaxsning kasbiy identifikatsiyasini shakllantiruvchi, uning ijtimoiy va kasbiy barqarorligini ta’minlovchi kompleks pedagogik mexanizm hisoblanadi[9]. Shu bois oliy ta’lim muassasasida tarbiyaviy faoliyat ta’lim jarayonidan ajralmagan holda, yagona pedagogik tizim sifatida qaraladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko‘ ra, tarbiyaviy faoliyatning samaradorligi uning kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilish darajasi bilan belgilanadi. Bunday yondashuvda tarbiya jarayonining asosiy natijasi sifatida talabaning o‘ zlashtirilgan bilim, ko‘ nikma, malaka va qadriyatlarni real hayotiy hamda kasbiy vaziyatlarda samarali qo‘ llay olish qobiliyati, ya’ni kompetentligi shakllanadi. Shu bois tarbiyaviy faoliyat mazmunini kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘ naltirish oliy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalari talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydigan, ularning kasbiy kompetensiyalari, ijtimoiy faolligi hamda ma’naviy-axloqiy fazilatlarini uyg‘ un rivojlantirish uchun zarur ta’limiy va tarbiyaviy muhitni shakllantiruvchi muhim pedagogik makon sifatida namoyon bo‘ ladi. Aynan ushbu muhit talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatga puxta tayyorlanishi, zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashuvi va uzluksiz kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Binobarin, oliy ta’lim muassasalari jamiyatning intellektual salohiyati va ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlovchi strategik institutlardan biri sifatida nafaqat raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, balki yuksak ma’naviyatli, ijtimoiy mas’uliyatni his etadigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, kasbiy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxslarni tarbiyalash vazifasini ham bajaradi. Shu bois oliy ta’lim muassasalarining ijtimoiy mas’uliyati ta’lim berish funksiyasi bilan cheklanmay, balki talabalarning ma’naviy-axloqiy, kasbiy va ijtimoiy kamolotini ta’minlovchi kompleks pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish orqali namoyon bo‘ ladi[3].

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko‘ ra, oliy ta’lim jarayonida **ta’lim, tarbiya** va **rivojlanish**ning **birligi** muhim tamoyil hisoblanadi. Bu birlik talabalarning kasbiy bilimlarni egallashi bilan bir qatorda, shaxsiy sifatlari, ijtimoiy faolligi va kasbiy madaniyatini shakllantirishni nazarda tutadi. Pedagogik tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, ta’lim jarayoni tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalardan ajratilgan holda samarali bo‘ la olmaydi[7]. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida o‘ quv mashg‘ ulotlari, tarbiyaviy ishlar va ilmiy-amaliy faoliyat o‘ zaro uyg‘ unlikda tashkil etilishi lozim.

Talabalarda kasbiy qadriyatlar, mas’uliyat va ijtimoiy faollikni shakllantirish oliy ta’lim muassasalarning asosiy ijtimoiy-pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Kasbiy qadriyatlar talabaning tanlagan kasbiga bo‘ lgan munosabatini, kasbiy burch va javobgarlikni anglashini belgilaydi. Ijtimoiy faollik esa talabaning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, tashabbus ko‘ rsatishi va ijtimoiy muammolarga befarq bo‘ lmasligi bilan ifodalanadi[11]. Bu jarayonda pedagogik ta’sir muhim ahamiyat kasb etib, u o‘ qituvchi va talaba o‘ rtasidagi «subyekt-subyekt» munosabatlari, hamkorlik va muloqot orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasasining ijtimoiy muhiti talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘ rsatadi. Ijtimoiy muhit deganda, oliy ta’lim muassasalarida shakllangan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi, akademik madaniyat, jamoaviy munosabatlar va ijtimoiy faoliyatlar majmui tushuniladi. Bunday muhitda talaba nafaqat kasbiy bilimlarni egallaydi, balki jamiyatda o‘ z o‘ rnini topishga, ijtimoiy mas’uliyatni his etishga va kasbiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishga intiladi[1]. Shu bois oliy ta’lim muassasalari talabalarning kasb egallashi va rivojlanishida ijtimoiy-pedagogik vazifalarni amalga oshiruvchi muhim manba sifatida namoyon bo‘ ladi.

Oliy ta’lim muassasasida ta’lim olish jarayoni talabaning kasbiy shakllanishi va professional rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon shaxsning kasbiy bilim, ko‘ nikma va malakalarni egallashi bilan bir qatorda, kasbiy kompetensiyalari, qadriyatlari, motivatsiyasi hamda kasbiy o‘ zligini anglashining izchil rivojlanishini ham qamrab oladi. Talabaning kasbiy shakllanishi murakkab, ko‘ p omilli, uzluksiz va bosqichma-bosqich kechadigan psixologik-pedagogik jarayon bo‘ lib, uning samaradorligi shaxsning individual xususiyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, kasbiy motivatsiyasi hamda ta’lim-tarbiyaviy muhitning sifatiga bevosita bog‘ liqdir.

Shu bois oliy ta’lim muassasasida tashkil etilgan ta’lim va tarbiyaviy faoliyat talabaning kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi yaxlit pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘ lib, unda nazariy tayyorgarlik, amaliy faoliyat, mustaqil ta’lim, ilmiy-tadqiqot ishlari hamda tarbiyaviy jarayon o‘ zaro integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi. Aynan shunday pedagogik muhit talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun zarur bo‘ lgan umumkasbiy va maxsus kompetensiyalarni tizimli ravishda shakllantirishga xizmat qiladi[11].

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda kasb egallash jarayoni, odatda, uch asosiy bosqichda talqin etiladi: **kasb tanlash, kasbiy moslashuv** va **kasbiy rivojlanish (1-rasm)**.



1-rasm. Talabalarn

Birinchi bosqich – **kasb tanlash bosqichi** tal ning o‘ z qiziqishlari, imkoniyatlari va ijtimoiy ehtiyojlar asosida muayyan kasb yo‘ nalishini tanlashi bilan tavsiflanadi. Bu bosqichda shaxsning ichki motivlari, kasbiy intilishlari hamda ke hbu tanlovning ongli yo

Kasb egallash jarayonining ikkinchi bosqichi – **kasbiy moslashuv bosqichi** bo‘ lib, u talabaning oliy ta’lim muassasasidagi yangi ijtimoiy va ta’limiy muhitga moslashuvi bilan bog‘ liqdir. Ushbu bosqichda talaba tanlagan kasbining mazmuni, talablari va real sharoitlari bilan bevosita tanishadi. Kasbiy moslashuv jarayoni muvaffaqiyatli kechishi talabaning o‘ qishga bo‘ lgan munosabati, o‘ zlashtirish darajasi, o‘ ziga bo‘ lgan ishonchi hamda kasbiy motivatsiyasining barqarorlashuviga xizmat qiladi. Pedagogik jihatdan bu bosqichda talabalarga psixologik-pedagogik qo‘ llab-quvvatlash ko‘ rsatish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchi bosqich – **kasbiy rivojlanish bosqichi** bo‘ lib, bunda talaba o‘ zini kelajakdagi mutaxassis sifatida anglay boshlaydi. Mazkur bosqich kasbiy identifikatsiya jarayoni bilan chambarchas bog‘ liqdir.

Kasbiy identifikatsiya *shaxsning o‘ zini muayyan kasb egasi sifatida qabul qilishi, kasbiy qadriyatlarni ichkilashtirishi hamda professional rolga tayyorlanishini ifodalaydi*. Oliy ta’lim muassasasida o‘ quv fanlari, amaliy mashg‘ ulotlar, pedagogik va ishlab chiqarish amaliyotlari orqali talabaning kasbiy o‘ zini anglash jarayoni izchil rivojlanadi.

Talabaning kasbiy shakllanishi jarayonida motivatsiya, kasbiy qiziqish va ehtiyojlar yetakchi psixologik-pedagogik omillar sifatida namoyon bo‘ ladi. Ayniqsa, ichki motivatsiyaning ustuvorligi talabaning tanlagan kasbiga nisbatan barqaror ijobiy munosabatini shakllantirish, kasbiy o‘ zini rivojlantirishga intilishini kuchaytirish, mustaqil ta’lim olish hamda uzluksiz kasbiy takomillashishga tayyorligini ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasasida yaratilgan ta’limiy va tarbiyaviy muhit talabalarning kasbiy ehtiyojlarini qondirish, qiziqishlarini qo‘ llab-quvvatlash, kasbiy motivatsiyasini mustahkamlash hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini izchil rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratadi.

Raqamli transformatsiya sharoitida talabaning kasbiy rivojlanishi faqat auditoriya mashg‘ ulotlari bilan cheklanmay, balki uning mustaqil ta’lim olish, o‘ z bilimini boshqarish va shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini belgilash qobiliyati bilan ham uzviy bog‘ liqdir. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar talabaning **ta’limiy avtonomiyasi (learner autonomy)** hamda **epistemik faolligi (epistemic agency)** kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko‘ rsatmoqda. Shu bois oliy ta’lim muassasalarining tarbiyaviy faoliyati talabalarda mustaqil qaror qabul qilish, refleksiv fikrlash, o‘ z-o‘ zini rivojlantirish va uzluksiz ta’limga tayyorlikni shakllantirish orqali ularning kasbiy kamolotini ta’minlovchi muhim pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ ladi[8].

Demak, oliy ta’lim muassasasi talabaning kasbiy shakllanishi, kasbiy moslashuvi va uzluksiz professional rivojlanishini ta’minlovchi yaxlit ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘ ladi. Ushbu tizim talabaning kasbiy identifikatsiyasini shakllantirish, kasbiy qadriyatlarini qaror toptirish, umumkasbiy va maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish hamda uni kelajakdagi mustaqil va samarali kasbiy faoliyatga kompleks tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasasida talabaning kasbiy shakllanishi va rivojlanishi ko‘ p jihatdan pedagog va talaba o‘ rtasida vujudga keladigan hamkorlik xarakteriga bog‘ liq. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda pedagog shunchaki bilim beruvchi emas, balki talabaning kasbiy rivojlanish jarayonini qo‘ llab-quvvatlovchi, yo‘ naltiruvchi va maslahatchi sifatida talqin etiladi. Shu nuqtayi nazardan, pedagog shaxsi talabaning kasbiy qadriyatlari, motivatsiyasi va professional o‘ zini anglashiga bevosita ta’sir ko‘ rsatuvchi muhim omil hisoblanadi[5].

Pedagog shaxsining kasbiy kompetentligi, pedagogik madaniyati va shaxsiy namunasi talabalarda tanlangan kasbga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, pedagogning kasbga sadoqati, adolatliligi, muloqot madaniyati va talabalarga bo‘ lgan ishonchi ularning kasbiy rivojlanish jarayonida muhim motivatsion omil bo‘ lib xizmat qiladi[6]. Ayniqsa, oliy ta’lim bosqichida pedagogning shaxsiy ta’siri talabaning o‘ z imkoniyatlarini anglashiga va kasbiy maqsadlarini aniqlashiga yordam beradi.

Pedagog va talaba o‘ rtasidagi munosabatlar «subyekt-subyekt» tamoyiliga asoslangan holda tashkil etilganda, ta’lim jarayoni yanada samarali kechadi. Ushbu yondashuvda pedagog va talaba teng huquqli hamkorlar sifatida namoyon bo‘ lib, o‘ zaro hurmat, ishonch va mas’uliyatga asoslangan muloqot vujudga keladi. «Subyekt-subyekt» munosabatlari talabaning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda kasbiy qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi. Bunday muhitda talaba o‘ zini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi va kelajak kasb egasi sifatida anglay boshlaydi.

Zamonaviy oliy ta’lim amaliyotida pedagog va talaba hamkorligining samarali shakllaridan biri mentorlik, maslahat va yo‘ naltirish faoliyati hisoblanadi. Mentorlik pedagogning talabaning individual qiziqishlari, ehtiyojlari va kasbiy rejalari asosida unga shaxsiy ko‘ mak berishini nazarda tutadi. Ilmiy manbalarda mentorlik talabaning kasbiy moslashuvi va professional o‘ sishini tezlashtiruvchi samarali mexanizm sifatida baholanadi. Maslahat va yo‘ naltirish jarayonida pedagog talabaning kasbiy rivojlanish yo‘ lini aniqlashiga, o‘ z kuchli va zaif tomonlarini anglashiga yordam beradi.

Shunday qilib, pedagog va talaba o‘ rtasidagi samarali hamkorlik oliy ta’lim muassasasini talabaning kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi muhim ijtimoiy-pedagogik muhit sifatida namoyon etadi. Pedagog shaxsining ta’siri, subyekt–subyekt munosabatlari hamda mentorlik va maslahat faoliyati talabaning kasbiy identifikatsiyasi va professional kamolotida muhim o‘ rin tutadi.

Oliy ta’lim muassasasida mustaqil ish va loyiha faoliyati talabaning ijodiy va innovatsion salohiyatini oshiradi. Talaba o‘ zining qiziqish va ehtiyojlariga mos loyiha yoki ilmiy ishlarni amalga oshirishi natijasida kasbiy o‘ sishning individual yo‘ lini yaratadi. Shunday qilib, ilmiy-tadqiqot, amaliy mashg‘ ulot va mustaqil loyiha faoliyati talabaning kasbiy identifikatsiyasi va kasb egallash jarayonida uzviy bog‘ liq va bir-birini to‘ ldiruvchi elementlardir.

Umuman olganda oliy ta’lim muassasasi talaba-yoshlarning bilim, ko‘ nikma va malakaga ega bo‘ lishida hamda kasbiy tayyorgarlikka ega mutaxassis bo‘ lib yetishishiga asos bo‘ luvchi tashkilot sanaladi. Tarixiy va zamonaviy tahlil shuni ko‘ rsatadiki, ta’lim muhitining ilmiy, amaliy va ijtimoiy komponentlari, shuningdek, pedagog-talaba hamkorligi talabaning kasbiy qobiliyatlarini kengaytirishga, mustaqil fikrlash va ijtimoiy ko‘ nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilgan[6]. Shu bois, kasbiy va umumkasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish oliy ta’limning nafaqat nazariy, balki amaliy maqsadlarini ham belgilovchi muhim yo‘ nalish sifatida e’tiborga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘ zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi **PF-5847-son «O‘ zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘ g‘ risida»gi Farmoni.**
2. O‘ zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi «O‘ zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘ g‘ risida»gi PF-6108-son Farmoni.
3. Abduqodirov A.A. **Pedagogika**. – Toshkent: Fan, 2018.
4. Islomova K., Abdullayeva N. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni // Samarali ta’lim va barqaror innovatsiyalar jurnali. – 2025. – №3(12).
5. Klimov E.A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. – M.: Akademiya, 2004.
6. Markova A.K. **Psixologiya professionalizma.** – M.: Znaniye, 1996.
7. Podlasiy I.P. **Pedagogika**. – Moskva: Prosveshcheniye, 2017.
8. Sanayeva S., va boshqalar. Impact of Decentralized Blockchain Based Credentialing on Learner Autonomy and Epistemic Agency in Global Digital Education Systems // Archives for Technical Sciences. – 2026. – No. 35. – P. 105–116. https://arhivzatehnickenauke.com/article/1066

9. Sultonov I. Tarbiya jarayoni mazmuni va mohiyati // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2025. – DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15553563.
10. Xasanova G. Tarbiya tushunchasi // Maktabgacha ta'lim jurnali. – 2021. – №4.
11. Zeer E.F. **Psixologiya professionalnogo razvitiya lichnosti**. – Moskva: Akademiya, 2006.
12. Маркова А.К. *Психология профессионализма.* – М., 1996.
13. https://edunews.ru/students/info/chto-vyshe-akademiya-ili-universitet-i-chem-oni-otlichayutsya-ot-institut.html